

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING RIVOJLANISHIDA
O'YINNING RO'LI VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING
TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA UNING AHAMIYATI**

Denov tadbirkorlik va pedagogika

Instituti Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Qodirova Barchinoy Qosim qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida o'yinning ro'li va maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim va tarbiya jarayonida uning ahamiyati haqida yoritilgan.

Аннотация: в статье рассматривается роль игры в развитии ребенка дошкольного возраста и ее значение в образовательно-воспитательном процессе дошкольной образовательной организации.

Abstract: this article discusses the role of play in the development of a preschool child and its importance in the educational and upbringing process of a preschool educational organization.

Kalit so'zlar: O'yin, syujetli-rolli o'yin, tarbiyachi, bola, "Ilk qadam" dasturi, ta'limiy faoliyat, kuzatish, ta'lim va tarbiya.

Kirish: "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarish farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash avvalo maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlanadi." O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi avvalambor sog'lom mafkurali, yuksak ma'naviyatli, yurt ravnaqi yo'lida mustahkam irodali, raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalashga bevosita bog'liqdir.

Maktabgacha ta'limni uzluksiz ta'limning eng muhim ilk bo'g'ini sifatida bilamiz. Maktabgacha ta'lim har tomonlama mukammal rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolalarni intellektual-salohiyatli, tanqidiy fikrlash qobiliyatga ega etish, uning bor imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi, bolani butun kelajagida muhim o'rin egallaydigan bilim, ko'nikma va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim dargohidir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti - bu o'ziga xos olam, unda bola o'zini qulay, xavfsiz va manzur sezishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va undagi olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari bola qobiliyati va layoqatini har tomonlama rivojlantirish, ular shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Barchamizga ma'lumki maktabgacha ta'lim tashkilotlari "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etiladi. Bu dasturi maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishda ilk dadil qadam hisoblanadi.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari, faoliyatning asosi ifodalangan. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda ta'limiy faoliyatni o'yin orqali tashkil etilishining samarali tomonlariga e'tibor qaratamiz. "O'yin orqali ta'lim berish"-maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning eng muhim yondashuvidir. O'yin bola o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. O'yin orqali bola o'z ehtiyojini qondiradi, yangi bilim ko'nikmalarga ega bo'ladi. O'yin o'zini anglash, menligini shakllantirish va atrofidagi dunyoni bilish imkonini beradi. Uni "bolalikning hamrohi" deb ataymiz. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Ma'lumki, inson o'z hayotida o'yin, bilim olish, mehnat, dam olish kabi faoliyatlar bilan band bo'ladi. Bola hayotining dastlabki davrlaridayoq o'yin uning asosiy faoliyati hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidan maktab ta'limiga o'tgan bola o'qish bilan o'yinni birgalikda olib boradi, undan so'ng esa bola

hayotida o'yin kamayib, uning o'rnini o'qish va mehnat egallaydi. O'yin o'ynayotgan bola nafaqat vaqtini yaxshi o'tkazadi yoki kayfiyatini ko'taradi, balki o'sadi, ulg'ayadi, chiniqadi, jismonan baquvvat bo'ladi, o'ylaydi, shuningdek, aqlan, ruhan rivojlanlanadi, ma'nan kamol topadi. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida o'yinning roli va maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim va tarbiya jarayonida uning ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan. Davlat o'quv dasturida bolaning oyin oynash huquqi tan olinadi, o'yinning bola uchun ahamiyati, uning pedagogik imkoniyatlari ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda inobatga olinadi. O'yin orqali ta'lim olish bolalarni ta'lim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biridir. Bolalar o'yinini tashkil etishda pedagogning o'ni quyidagilar:

- bolalar o'yinlari uchun sharoit yaratish (vaqt, joy, resurslar).
- bolalar o'yinini rivojlantirish.
- bolalarning o'yinda o'zaro munosabatda bo'lishiga yordam berish
- bolalarga o'zlarini va qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyatini berish deb mulohaza yuritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida o'yinlar juda katta ahamiyatga ega. O'yin - ijtimoiy tajriba manbai, jiddiy tarbiya shaklidir. Shu bilan birga rivojlanishning keyingi bosqichiga, ya'ni maktab ta'limiga o'tishga tayyorlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinning barcha turlarini sevib o'ynaydilar. Ayniqsa, syujetli-rolli o'yinlar bolalarning sevimli o'yinlari turiga kiradi. Syujetli-rolli o'yinlar o'ynash orqali bolalar kattalar hayotini obrazlarda talqin etib berishadi. Bu obrazlarni bajarish orqali ular kattalar hayotiga chuqurroq kirib boradilar, katta insonlarning faoliyatini va ularning munosabatlarini aks ettirishga harakat qiladilar. kattalardek fikrlash, muammolarni madaniyatli kishilarga xos tarzda hal etishni o'rganadilar. Buning natijasida bolalarda kattalardek bo'lishga intilish, o'yin paytida o'z g'oyalari bilan ishtirok etish, mustaqillikka intilish, tashabbus ko'rsatish kabi xulq normalari tarbiyalanadi.

O'yinlar bolalarning hayotini quvnoq kechinmalar bilan to'ldiradi, ularni hissiy jihatdan boyitadi, tetik kayfiyatni yaratadi. O'yin bu haqiqatni aks ettirish shaklidir, u atrofidagi odamlar bilan ijobiy, ochiq ko'ngildagi va o'yin orqali muloqot, shuningdek muhim ijtimoiy va ruhiy ko'nikmalarni shakllantiradi. Bolalar olamni o'yin orqali o'rganadilar. Eng avvalo, bolalar kattalar va tengdoshlari bilan muloqot va o'zaro aloqa qilish orqali, shuningdek birgalikda olib boriladigan o'yin faoliyatlari yordamida atrof olamni tadqiq etishni va tushunishni o'rganishadi. Bu hayotiy tajriba bolalarga ijodiy, qiziquvchan, bilimga chanqoq bo'lishlariga imkon beruvchi qobiliyatlarni rivojlantiradi va ular shakllantirayotgan yaqinlik va munosabatlar ruhiy xotirjamliklarida muhim rol o'ynaydi. Bolalar muvaffaqiyatga erishishlari uchun ularni o'sishlariga qarab rivojlanib boradigan o'yinga asoslangan munosabatlar orqali tarbiyalash va qo'llab-quvvatlash lozim. O'yin qaysi turga xosligidan qat'iy nazar, bolalar qiziqishlari hisobga olinishi lozimdir. Ana shundagina bu faoliyatning amalga oshirilishi bolaga doimo mamnuniyat va zavq bag'ishlay oladi.

O'yinning yana bir o'ziga xos jihati shundan iboratki, bola hayoti davomida qilib ko'rmagan yoki qila olmagan faoliyatini o'yin jarayonida bajarib erisha olishidir. Masalan, raketada uchishni orzu qilgan bola o'yindagi roli orqali zo'r uchuvchiga aylanadi. Yoki, loydan yasagan binolarini ko'rsatib "men zo'r quruvchiman" deb faxrlana oladi. Bizga ma'lumki, o'yin, jamoaviy faoliyatda o'zini yanada jozibasini yorqinroq ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, sayrda, tadbirlarda, faoliyatlar davomida amalga oshirilgan o'yinlar davomida bolalar bir-birlari bilan aloqa qiladilar.

Maktabgacha yoshdagi davrda, bir-biri bilan aloqa qilish, munosabatga kirishish zarurati yanada yorqinroq ifoda etiladigan boshqa faoliyat mavjud emas. Shuning uchun o'yin davomida nutq vositalarini mahorat bilan egallash maxsus motivatsiyaga ega bo'ladi. O'yinlar davomida bolalarning muloqot qilishi ularning nutqini rivojlantirishga (so'zlarning ma'nosini kengaytirish, tabiiy sharoitda nutqda mashq qilishga) yordam beradi.

O'yinning bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o'yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O'yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg'ulotlardan so'ng, sayrlardan so'ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o'ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o'yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko'proq didaktik o'yinchoqlar, stol ustida o'ynaladigan stol-bosma o'yinlari, syujetli-rolli o'yinlarni o'ynagan maqul.

Sayr davomida harakatli o'yinlarni, qurish-yasash o'yinlarini tashkil etish foydalidir. Kun tartibida o'yin uchun maxsus vaqt belgilash o'yinning mustaqil faoliyat sifatida mavjud bo'lishining va uni bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida, tarbiya vositasi sifatida qo'llanilishining eng muhim pedagogik shartidir. Bolalar o'yinining o'ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o'zaro munosabatlarini aks ettiradi.

O'yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o'rmon, metro, temir yo'l vagoni bo'lishi mumkin. Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o'rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning o'rniga o'zi gapiraveradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi. Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechilmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi.

Bolalarning o'zi yaratgan o'yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o'yinning g'oyasi, mazmuni, o'yin harakatlari, rollar, o'yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir. O'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O'yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o'zining butun diqqatini o'yinga qaratishi lozim. Bola o'ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri etarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi.

Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos maktabdir.

O'yinda bola kishilarning axloqodob me'yorlarini, mehnatga munosabatlarini bilib oladi. Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar o'z xohishlarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o'yinda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o'rganadilar.

Chet el pedagog olimlaridan P.F.Lesgaft, K.D.Ushinskiy tomonidan o'yin nazariyasi ishlab chiqilgan. Ushinskiy bolalar faoliyatida o'yinning mehnat jarayoni asosida paydo bo'lganligini va uni yosh avlodni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi roli, o'yinning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslab berdi. U "Bolalar o'yinlari ko'p asrlik tarixga ega.

Insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun hamunda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan" -deb ta'kidlaydi.

Chunki har bir faoliyat jarayonida o'yin yetakchi tur sifatida qaraladi. O'yin bola tomonidan hayotiy tajribalari asosida ma'lum voqea va hodisalarni aks ettirgan holda namoyon bo'ladi. (2) Bundan tashqari Ya.A.Komenskiy g'oyalari ham hozirgi zamon bolalarining o'yinlar nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. Ya.A.Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan shakli deb hisoblar edi. Uning fikricha, o'yin – bolaning barcha ko'rinishlari rivojlanadigan aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqida tasavvurlari rivojlanib boradi va bolada nutqni rivojlantiradi deb ta'kidlaydi. Bola o'yin davomida o'ziga do'st orttiradi. Ya.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qararekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda

bo'lishni, ularga oqilona rahbarlikni qilishni maslahat bergan edi. Chunki har bir bola o'yin jarayonini o'zi yaratadi. Bunda bir xil bolalarda liderlik qobiliyatlari shakllanib boradi. Bolalar o'yinlarida albatta kattalar ham e'tiborli bo'lishi ular uchun qulay sharoitlarni yaratib berish, ularni xavfsizlik taraflarini ham e'tiborga olishlari va o'yin faoliyatida foydalanishi kerak bo'ladigan jihozlar bilan ta'minlab berishlari kerak bo'ladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan bolalarda ta'lim olish motivlarini ularning turliyo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini amalga oshiradigan biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolly, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlardan foydalaniladi va alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda.³ Harakatli o'yinlar: "To'p tashlash" yoki yugurish elementlariga ega bo'lgan o'yinlar bolalar sog'lig'ini mustahkamlaydi. Harakatli o'yinlar. Milliy harakatlar o'yinlarni mashg'ulotlar davomida qo'llash bolalardakatta qiziqish uyg'otadi, ularni kayfiyati va boshqa ruhiy sifatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tariximizdan meros bo'lib qolgan o'zbek xalq milliy o'yinlari hayotda tadbqiq etishgakenroq yo'l ochib berilishi, uni ommaviy tus olishida oilada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktablarda, dam olish joylarida, har xil marosim va bayramlarda uni tashkillashtirish o'sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Bilamiz, milliy xalq o'yinlari qadim-qadim zamonlardan boshlab, xalq marosimlarida, urf-odatlarda mustaqil bir soha sifatida musobaqalarda, baxshilarda keng qo'llagan bo'lib, ming yillar davomida rivojlanib, takomillashib kelgan. Xalq milliy o'yinlari hozirgacha o'z dovrug'ini yo'qotmagan holda turli bayram vamarosimlarida keng ravishda qo'llanib kelinmoqda. O'zbek milliy xalq o'yinlari "Otda chopish",

"Qiz quvlash", "Uloq", "Kamonda otish", "Xo'rozlar jangi", "Besh tosh", "Sapalak", "Jambalak xola", "Kurash", "Kim tez o'raydi", "Chillak" kabi o'yinlar qadimgi o'yinlar sirasiga kiradi. Bu o'yinlar orqali bolalarda botirlik, epchilik, muvozanatni saqlash sifatlarinirivojlantirishda, hamda qaddi-qomatni shakllantiradi

va odob- axloq, ong, xotira, diqqat kabi xislatlarni rivojlantirishda va albatta sog'liqni mustahkamlashda eng samarali vosita bo'lib kelgan. Harakatli o'yinlarni to'plash va ularni hayotga tadbiiq etish, ulardan oqilona foydalanish bugungi kunda oldimizda turgan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Nafas mashqlari, yurish turlari va sakrashlar, oyoq va qorin mushaklarini, gavda va umurtqani, oyoq va tovon bo'g'inlari mushaklarini tarbiyalashga qaratilgan mashqlar, chaqqonlik va jasurlik hamda muvozanat sifatlarini rivojlantiruvchi mashqlar, quvnoq bolalarning harakatli o'yinlari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun yaratilgan ta'lim-tarbiya dasturi, Maktabgachata'limga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq barcha guruhda bolalar yurish, yugurish, muvozanat saqlash, sakrash, uloqtirish, tirmashib chiqishga o'rganib, uni takomillashtirib boradilar, sport o'yinlari: basketbol, futbol, sport elementlari va hokazolarni egallaydilar.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning maqsadi yosh avlodni vatanparvar, iymon-e'tiqodli, yuksak ma'naviyatli, keng dunyoqarashli, jahon standartlari darajasidagi kadrlar qilib yetishtirishdan iborat bo'lgan muhim vazifa sanaladi. Yuksalish sari dadil qadamlar bilan odimlab borayotgan vatanimiz uchun keng dunyoqarashga ega, mustaqil fikrlaydigan, bir qancha xorijiy tillarni puxta egallagan, zamonaviy texnologiyalardan foydalana oladigan, shu bilan bir qatorda ta'lim jarayoniga yangiliklar kiritish kabilarni amalga oshira oladigan, umuman olganda, yoshlarni tarbiyalash davr talablaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Yosh avlodga vatan va xalq ravnaqi yo'lida xizmat qilish, vatanni qo'riqlash, eng asosiysi o'zbek xalqining boy milliy urf-odat va qadriyatlariga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida sezilarli darajada samara berishini yana bir bor ta'kidlab o'tishimiz joizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Toshkent- 2020 yil.
2. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. Toshkent-2022 yil.
3. E.A. Migranova, Sh.X. Poziiova Kasbiy pedagogik faoiyatga kirish / O'quv qo'llamna. - Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2018 y. - 200 bet
4. F.Qodirova, SH. Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika"-T., "Ma'naviyat". 2019 y.- 688 bet
5. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. - T., "Tafakkur bo'stoni", 1992.
6. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
7. Davydova, I. (2017). Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin va uning tarbiyaviy roli.
8. Роль игры в жизни дошкольника» Самарина Л.Л., воспитатель, 1 квалификационная категория
9. А.С. Яцковец, взгляды отечественных и зарубежных ученых на феномен игры, 190-191 с.)